

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUN
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Abdullayeva Feruza Baxrombekovna XORAZM HUNARMANDCHILIGI, KIYIMLARI VA AN'ANAVIY TAOMLARI TARIXIDAN.....	7
2. Ro'zmetova Malika Quronbayevna O'ZBEKISTON VA NATO HAMKORLIGI	10



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

XORAZM HUNARMANDCHILIGI, KIYIMLARI VA AN'ANAVIY TAOMLARI TARIXIDAN

Abdullayeva Feruza Baxrombekovna

Urganch shahar 5- son maktabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm hunarmandchiligi sohalarida taraqqiy etgan Xiva xonligi davri bo'yicha aholining turli mahsulotlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: sovut, sadoq, nayza, o'q-yoy, qilich hanjar, kulolchilik, bo'yoqchilik, zargarlik, bo'z, chit, doka, ishto'p, obyot, olacha matolar, tikuvchilik, taxiyado'zlik, telpakdo'zlik, cho'girmado'zlik.

Xiva xonligida XIX asr boshlaridan siyosiy hayot barqarorlashib, iqtisodiy hayot rivojlanib bordi. Mahsulotiga talab so'nib borgan hunarmandchilik turlari (qimmatbaho matolar, zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarish, oltin va kumush tanga zarb etish) kabilar tiklandi. Mamlakatdagi sertarmoq hunarmandchilik turlari rivojlanib, aholining turli mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy ishlab chiqarish sohasi bo'lib qolaverdi.

Siyosiy hayotda “xon bo'lish” o'yini, o'zaro urushlar, tashqi kuchlarning tajovuzi avj olgan, iqtisodiyot izdan chiqqan davrlarda hunarmandchilik sohalarida turg'unlik, ishlab chiqarishning susayishi, ayrim hunar tarmoqlarining shu davr ehtiyojiga moslashishi kuzatiladi. Masalan, temirchilar tinch osuda davrlarda turli uy-ro'zg'or buyumlari ko'plab ishlab chiqargan bo'lsa, o'zaro kurashlar va urushlar bo'lganda ular qurollar ishlab chiqarishni kengaytirganlar. Qurol-aslaha turlarini ishlab chiqarish borasida muayyan o'zgarishlar yuz bergan. Mamlakatda sovut, sadoq, nayza, o'q-yoy, qilich hanjar kabilar ko'plab ishlab chiqarilgan bo'lsa, XIX asr boshlarida zamonaviy o'q otar qurollar – miltiq, qo'shmil miltiq, oltiotar miltiq, shamhol, to'p, porox ishlab chiqarish rivojlangan[1].

XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligiga Rossiyadan ayrim arzon fabrika mahsulotlarning kirib kelishining faollashuvi natijasida ba'zi hunar turlarida ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Ular jumlasiga, to'qimachilik, oyoq kiyim ishlab chiqarish bilan bog'liq hunarlar, kulolchilik, bo'yoqchilik, zargarlik, qandolatchilarning ayrim turlari va boshqalarni kiritish mumkin. SHu bilan birga XIX asrda kuzatilgan migratsion jarayonlar natijasida xonlik hududiga ko'chib kelgan boshqa xalqlar vakillari tomonidan Xiva xonligiga yangi hunar turlari – tunukachilik, tugma ishlab chiqarish, parket pol qoqish, kesma saryog' qilish olib kelindi va xonlik hunarmandchiligidan o'rin oldi. To'quv va tikuv mashinalarining kirib kelishi, mahalliy xom ashyo paxtadan ip-kalava tayyorlash, mato ishlab chiqarish hunarlarida muayyan o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldi.

R.G.Mukminova tomonidan aniqlangan Samarqand va Buxorodagi 130 ga yaqin hunar turi Xiva xonligida ham mavjud hunarlarning aksariyat qismini tashkil etgan. Turli xarakterdagi manbalar ma'lumoti xonlikda 100 dan ziyod kasb-hunarlar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bular bevosita tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar, o'z faoliyati bilan turli hunarmandchilik sohalariga xizmat ko'rsatuvchi, aholining kundalik turmush ehtiyojlari uchun mahsulot etkazib berishga ixtisoslashgan kasb-hunar egalaridan iborat bo'lgan. XIX asrning 60-yillarida Xiva markaziy bozorlarida do'kon ochib, maxsus soliq – tay-joy to'lab turgan hunarmandlar soni 556 ustadan iborat bo'lib, ular 27 xil kasb-hunar vakillari bo'lgan. Xonlik hunarmandchilik markazlarida doimiy do'konga ega bo'lgan hunarmandlardan tashqari bozorda do'konga ega bo'lmasada, unga o'z mahsulotini etkazib bergan kulollar, tandirchilar, chitgarlar, duradgorlar, qurilish sohasi ustalari kabi boshqa turli hunarmandlar ham faoliyat yuritganlar. Bu esa, xonlik markazida kuzatilganidek, Xivada turli hunarmandlar faoliyat ko'rsatganligini namoyon qiladi.

Xiva xonligi hunarmandchiligining etakchi sohasi to'qimachilik edi. Mahalliy tabiiy tolalar – paxta, zig'ir, kanop, ipak va jun tolasidan hunarmandlar aholining barcha qatlamlari ehtiyoji uchun



bo‘z, chit, doka, ishto‘p, obyot, olacha matolar, hamda yuqori tabaqa vakillari uchun qimmatbaho gazlamalar mahmal (bahmal), parcha, gulnor, qumaysh, zarboft, tafta, cho‘btor, turma kabi ishlab chiqarganlar. Mato to‘quvchi ustalarni jomabof, ayrimlarini esa ishlab chiqargan mato turiga qarab chitgar, olachabof deb ataganlar. Xonlikda ro‘mollar, turma belbog‘lar, sallalar to‘qishga ixtisoslashgan ustalar, xususan, fo‘taboflar faoliyat ko‘rsatgan. To‘qimachilar tomonidan matolar asosan mahalliy aholi talab va ehtiyoji hamda ichki savdo uchun mo‘ljallanib dag‘al, ammo mustahkam, pishiq qilib to‘qilgan. Nafislik va jimjimadorlik borasida ular Buxoro matolariga yon bergan. Ko‘chmanchi hayot tarziga ega chorvador aholi gilam, namat, xurjun va shu kabi jun tolali matolar to‘qishda mohir bo‘lganlar. Turli mato, kiyim-bosh, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqalarni to‘qish asosan ayollar qo‘l mehnatiga asoslangan bo‘lib, ular bu sohaning rivojida etakchilik qilardi.

To‘qimachilik bilan uzviy bog‘liqlikda xonlikda boshqa hunar turi bo‘yoqchilik hunari ham rivojlangan. Bo‘yoqlar mahalliy ro‘yan, saksovul, gulhayri, jiyda, quyonsuyak, gultojixo‘roz, anor po‘sti, isparak kabi o‘simliklardan bo‘yoq tayyorlash sir-usullarini yaxshi bilganlar. Xivada matolarni turli rangga bo‘yovchilarni rangrez, bo‘yoqchi, kabutgar kabi nomlar bilan ataganlar.

Xonlikda rivojlangan hunarmandchilik sohalaridan biri kiyim-bosh ishlab chiqarish – tikuvchilik, taxiyado‘zlik, telpakdo‘zlik, cho‘girmado‘zlik, po‘stindo‘zlik kabi hunarlar edi. Tikuvchilik bilan shug‘ullangan hunarmandlar chopon (to‘n), chakmon, ishton, ko‘ylak, ayollar choponi – elaklar, kamzul, zegdi hamda bolalar kiyimlarini xilma-xil matolardan turli bichimda tikganlar. Xonlikda tikilgan choponlar o‘z bichimi va sifati jihatidan boshqa O‘rta Osiyo xonliklari choponlaridan ajralib turgan. Xiva choponlari mayda qavilib, to‘g‘ri bichimda tikilgan va uni pardozlab yaltiratishga ahamiyat berilgan. Bu choponlar boshqa mamlakatlarda ham haridorgir bo‘lib, savdogarlar ularni Qo‘qon, Buxoro, Eron va Rossiyaga olib borib sotganlar.

Tikuvchilar uy-ro‘zg‘or jihozlari – ko‘rpa, to‘shak, yostiq-taka, luli taka, ko‘rpacha tikish bilan ham shug‘ullanganlar. Xonlik erkaklari uchun hunarmandlar tomonidan cho‘girma, telpak, do‘ppi, sallaki, taxiya kabi bosh kiyimlar tayyorlangan. Ayollar uchun esa ro‘mol, lachak, bosho‘rov, kemishik kabilar ishlab chiqarilgan.

Tadqiqot qamrab olgan davrda hunarmandchilikning bu sohalarida muayyan o‘zgarishlar yuz bergan. XIX asr o‘rtalarida migratsion jarayonlar oqibatida xonlikda yangi kiyim-bosh turlari rasm bo‘lib, mahalliy hunarmandlar ularni ishlab chiqarish malakasini egallab olganlar. Ulardan biri telpakning bir turi cho‘girma – telpagi bo‘lib, uni tayyorlovchi ustalar Xiva va YAngi Urganchda ko‘p ustaxonalariga ega edi. SHahar bozorlarida telpak va cho‘girma sotadigan telpakfurushlik rastasi bo‘lgan[2].

Xonlikda taraqqiy etgan hunar sohalaridan biri ko‘nchilik edi. SHahar va uning atroflarida hamda ko‘chmanchi dashtda boqilgan qoramol, ot, tuya, eshak, qo‘y, echki terilariga ishlov berish orqali ko‘nchi ustalar tomonidan turli teri: gudari, ko‘jil, sag‘ri, zamsha, tag charm terilik tayyorlangan va xar xil bo‘yoqlarga bo‘yalgan. Hunarmandchilikning turli sohalarida mashg‘ul hunarmandlar tomonidan oyoq kiyimlar etik, kovush, mahsi, po‘stinlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, mesh, qayishlar, elak-tirlar, kitob muqovalari, egar-jabdug‘ anjomlari, harbiylar uchun mo‘ljallangan idish tovoqlar soladigan quti-qubbalar, xanjar, qilich qinlari, belbog‘lar, bosh kiyimlar kabi buyumlar tayyorlangan. Bundan tashqari, xonlikda ishlab chiqarilgan teri xillari va ulardan tayyorlangan mahsulotlarga chet davlatlarda ham talab katta edi. Xivalik ko‘nchilar teriga ishlov berishning o‘ziga xos mahalliy texnologiyasiga ega edilar. SHu bilan birga ular tashqi savdo aloqalari natijasida xonlikka olib kelingan turli terilarni tayyorlash texnologiyasini ham o‘zlashtirib olganlar. Ular jumlasiga Rossiyadan olib kelingan – talatin, yuft, bulg‘ori, Erondan olib kelingan sherozi terilarni kiritish mumkin. Mahalliy hunarmandlar nafaqat bu teri xillarini yaratish balki, xonlik uchun noan‘aviy oyoq kiyimlar – no‘g‘ay kovushlar, maxsi, popushlar, yangi rusumdagi etiklar va h.k. ishlab chiqarish usullarini ham o‘zlashtirib olganlar. Bu o‘z navbatida mazkur hunarmandchilik sohalarida ham muayyan o‘zgarishlarga yuz tutganligini ko‘rsatadi.

Xivada keng rivojlangan hunarmandchilik sohalaridan biri metallga ishlov berish bo‘lib, u muayyan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarlar – temirchilik, cho‘yan quyish, rextagarlik (bronzaga ishlov berish), misgarlik, qurolsozlik, pichoqchilik, qimmatbaho metallarga ishlov berish – zargarlik, tanga zarb qilish kabilarga bo‘lingan edi. Ularda faoliyat yuritgan hunarmandlar, xususan, temirchi ustalar uy-ro‘zg‘or buyumlari va mehnat qurollari: o‘roq, bolta, ketmon, bolg‘a, arra, qaychi, bigiz, mix, xokandoz kabilarni ko‘plab yasaganlar. SHu bilan birga ular harbiy yurishlar davrida qurolsozlik bilan ham shug‘ullanganlar.



Xonlik hunarmandchiligida XIX asr boshlarida yuz bergan o'zgarishlar – tashqi savdo aloqalari, migratsion jarayonlar natijasida xonlik hududiga tayyor fabrika mahsulotlari va xom-ashyoning olib kelinishining mahalliy hunarmandchilik taraqqiyotiga ta'sirini bir yoqlama baholab bo'lmaydi. Bir tomondan bu jarayon muayyan hunarmandchilik sohalari ishlab chiqarish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchi tomondan, hunarmandlar xonlik tashqi savdo hamda etnomadaniy aloqalar natijasida yangi mahsulotlar va ularni tayyorlash uslublaridan voqif bo'lganlar. Biroq mahalliy hunarmandchilik xonlik aholisining turli buyumlarga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy ishlab chiqarish sohasi bo'lib qolaverdi[3].

Hunarmandchilikda an'ana va urf-odatlar, har bir hunar sohasida erishilgan tajriba va malaka, sir-asrorlarning avloddan avlodga o'tib kelishi, bu hunar turlarining davomiyligini taminlagan va davrlar o'tishi bilan rivojlanib, takomillashib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тураева С. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги ҳунармандчилиги тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссерт. автореферати.- Т., 2009.
2. Тураева С. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги ҳунармандчилиги тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссерт. автореферати.- Т., 2009.- Б. 28.
3. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. Хиванинг 2500 йиллигига бағишланган қўшма илмий-назарий анжуман материаллари. Урганч, 1997 йил 28 февраль. – Урганч, 1997. – 108 б



O'ZBEKISTON VA NATO HAMKORLIGI

Ro'zmetova Malika Quronbayevna

Urganch shahar 5- son maktabning tarix fani
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston bilan NATO o'rtasidagi hamkorlik rivoji va shu bo'yicha imzolangan bir qator hujjatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: NATO, harbiy kadrlar, delegatsiya, transit, TRASEKA, savdo-kommunikatsiya.

Respublikamizning Shimoliy Atlantika Ittifoqi (NATO) bilan hamkorligi ham kuchaymoqda. O'zbekistonning NATO bilan aloqalari 1991 yil 21 dekabrda o'rnatilgan. Ayniqsa, uning “Tinchlik yo'lidagi hamkorlik” dasturiga 1994-yilda O'zbekistonning qo'shilishi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda va xalqaro hamjamiyatda obro'li o'rin egallashida, hozirgi zamon harbiy texnika yutuqlaridan foydalanishda hamda harbiy kadrlarni tayyorlashda zamonaviy uslublarni qo'llashda muhim ahamiyatga molikdir. NATO rahbarlarining bir necha bor O'zbekistonda bo'lishi dunyo va mintaqadagi xavfsizlik masalalarida ikki tomonning fikrlari mos kelishini ko'rsatdi.

Mamlakatimiz bilan NATO o'rtasidagi hamkorlik rivojida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2011 yil 24 yanvar kuni bo'lib o'tgan Bryusselga tashrifi va uning doirasida NATO Bosh kotibi A.Rasmussen bilan uchrashuvi muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri rahbarligidagi delegatsiya NATOning 2012 may oyida Chikago shahrida bo'lib o'tgan Sammitida ishtirok etdi. NATO bosh kotibining Kavkaz va Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili J.Appaturay 2013 yil mart va 2014 yil may oylarida mamlakatimizga tashrif buyurdi.

2013 yil avgustida Toshkentda NATOning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqa va hamkorlik bo'yicha xodimi Byurosi hamda 2014 yil mayida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti huzurida NATOning Depozitar kutubxonasi ochilishi O'zbekiston bilan Shimoliy Atlantika ittifoqi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda ijobiy ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga salmoqli hissa qo'shib, jumladan transit shartnomalari doirasida o'z hududidan ISAF a'zolari uchun mo'ljallangan noharbiy yuklarni Afg'onistonga olib o'tish va uning hududidan olib chiqishga rozilik berish asnosida xalqaro sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Shuni alohida takidlash lozimki, faqatgina mustaqillik sharofati bilan mamlakatimiz dunyoda o'z o'rni va so'ziga ega bo'lib bormoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, - “Mustaqillik tufayli dunyoga, jahonga chiqdik. Qariyb yuz yildan beri yopib qo'yilgan chegaralar ochildi, vatandoshlarimiz bilan yuz ko'rishdik...Dunyo haritasida endi katta xarflar bilan O'zbekiston deb yozib qo'yiladigan bo'ldi” deya ta'rif beradi[1]. Mustaqillikdan keyin mamlakatimizning Yevropa davlatlari bilan uzviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-diplomatik aloqalar tizimini qaytadan qurish zaruriyati paydo bo'ldi. Mamlakatimiz Yevropa mintaqasi davlatlari bilan har tomonlama hamkorlikning rivojlantirish istiqbollarini belgilab olar ekan, Buyuk Ipak yo'lining zamonaviy sharoitlarda qayta tiklanishi tarixiy ma'noda ham, strategik ma'noda ham o'ta muhim ahamiyat kasb etishiga alohida urg'u berib kelmoqda.

“O'zbekistonning Markaziy Yevrosiyaning muhim yo'llari tutashgan chorrahada joylashganligi, - deb yozadi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov, - tarixning in'omidir. Bu xol Yevrosiyo iqtisodiy va madaniy ko'prigini o'rnatishning eng yaqin va olis istiqbolda butun tashqi iqtisodiy faoliyatning bosh yo'li sifatida olg'a surish imkonini beradi”[2].

Mazkur jarayonlarni hayotga tadbqiq qilish maqsadida Yevropa Ittifoqi komissiyasi hamkorligida Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasini Yevropa bilan bog'lovchi transport koridorini tashkil qilish loyihasini alohida takidlashimiz lozim. TRASEKA loyihasi deya nom olgan bu rejani amalga oshirish maqsadida, 1993 yilda Bryussel shahrida imzolangan shartnoma huquqiy asos vazifasini bajarmoqda. Mazkur shartnomaga ko'ra, kelajakda Yevropa – Kavkaz – Osiyo avtomobil va temir yo'l tizimini yaratish, bu boradagi ishlarning samaradorligini oshirish hamda mintaqaviy savdo-kommunikatsiya yo'llarini diversifikatsiya qilish jarayonlarini ko'zda tutadi. Masalaning geosiyosiy faktorlariga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, Yevropa va Osiyo mintaqasini o'zaro bog'lovchi yangi transport koridorlarini shakllantirish yangi dunyoning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi deyishimiz mumkin. “Insoniyat tarixida so'ngi yangi qit'a ochilganiga juda ko'p yillar bo'ldi. Azaldan Yevropa va Osiyo alohida-alohida mintaq va



tsivilizatsiya sifatida talqin qilib kelingan, lekin yangi dunyo talablari Yevrosiyo geosiyosatini vujudga keltirdi. Mazkur jarayonda esa yangi “Ipak yo’llari”ning ahamiyati beqiyosdir” – deya boshlanadi, Djon Xopkins nomidagi Markaziy Osiyo va Kavkaz Universiteti direktori Friderik Starr maqolasi. Mazkur maqola esa o’z navbatida, Amerikaning «New Silk Road» geosiyosiy loyihasiga ilmiy asos bo’lib xizmat qildi. AQSh davlat deportamenti tomonidan ishlab chiqilgan mazkur kontseptsiya, ming yillar oldin Yevrosiyo mintaqasini bir-biri bilan chambarchas bog’lagan savdo-kommunikatsiya yo’llari va logistika markazlarini zamonaviy sharoitlarda qayta tiklashni ko’zda tutadi[3].

F.Starr takidlashicha, Markaziy Osiyo davlatlari, o’zlarining strategik jihatdan qulay joylashganini va mazkur holatdan samarali foydalana olish kerakligini, oxir-oqibat tushinib etishlari lozim. Bu yo’nalishda esa, mintaqadan o’tadigan barcha logistika markazlarini birlashtiradigan koordinatsion kengash tashkil qilish maqsadga muvofiq bo’ladi. Mazkur loyihalarni amalga oshirish asnosida, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O’zbekistonda, transport infratuzilmasini takomillashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash maqsadida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa rivojlanish va rekonstruktsiya banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi bir-qancha xalqaro tashkilotlar moliyaviy ko’magini alohida takidlashimiz lozim.

Buesa o’z navbatida, O’zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarga integratsiyalashuvini, ijtimoiy-gumanitar hamkorlik tizimlarining rivojlantirilishini va oxir oqibatda mamlakatimizning jahon siyosiy maydonida munosib o’rin egallashida muhim omil bo’lib xizmat qiladi. So’zimizning isboti sifatida Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, Yevropada havfsizlik va hamkorlik tashkiloti loyixalar koordinatori ofisi va boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda deyarli besh yildan beri o’tkazilib kelinayotgan “Nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat boshqaruvi organlarining ijtimoiy hamkorligining dolzarb masalalari” mavzusidagi ikki mintaqa rasmiy va ekspert doiralari davra suhbatlari buning yorqin misolidir[4].

Mazkur davra suhbatlarida Yevropalik olimlar O’zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar tendentsiyasiga ijobiy baho bergan xolda, uning o’ziga xos jihatlari to’xtalib o’tidilar. Masalan, Yevropalik ekspertlar: “O’zbekiston tanlagan siyosiy modernizatsiya strategiyasi, eng avvalo rivojlangan demokratik davlatlarning ijobiy tajribasini chuqur o’rganish asosida olib borilmoqda. Bu esa kelajakda o’z natijasini berishi, jamiyatda demokratik printsiplarning keng yoyilishiga omil bo’ladi albatta” - deya takidlaydilar.

“Nippon” fondining xalqaro dasturlar loyihasi koordinatori Mari Tanakaning e’tiroficha: “O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi tez sur’atlarda kechmoqda. Bugun ular, shaxs huquqlarini himoya qilish va ularning faolligini oshirish sohasiga katta ulush qo’shmoqdalar. O’zbekistonda shakllangan va tobora mukammallashib borayotgan fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish institutlarini alohida takidlash lozim. Mahallalarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o’rni, ularning ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik nazorati funktsiyalari o’rganishga arziydigan asoslar hisoblanadi”[5].

Darxaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida, “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” kontseptsiyasini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining roli katta. O’zbekistonda NNTlarning davlat tomonidan har tomonlama qo’llab-quvvatlanishi bo’yicha barcha huquqiy asos va noyob mexanizmlar tizimi shakllantirilganligi sabab, bugungi kunda ular jamiyatning barcha jabhalarida o’z faoliyatini olib borishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. “Ўзбекистон”. Т., Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг навбатдан ташкари IX сессиясидаги маърузаси, 1992 й. 4 январ. 426 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. “Ўзбекистон”. Т., 1999. 599 б.
3. Геополитика Евразийских транспортных коридоров (New Silk Road & Babur’s Order). – journal «Central Asia and the Caucasus, Journal of Social and Political Studies»
4. Nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat boshqaruvi organlarining ijtimoiy hamkorligi. www.nimfgo.uz 12 noyabr, 2012 y.
5. Qirg’izboev A. O’zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. - Т.: “Fan”. 2004.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000